

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.N.Nargiza	
Kognitiv tilshunoslik va “Makon” konseptining o’rganilishi.....	244
Э.Ж.Зиёхиддинова	
Духовные поиски и восточные символы в повести Тумура Пулатова «Окликни меня в лесу»	248
O.O.Xoshimova	
O‘zbek va ingliz tillarida zoonimik frazeologik birliklarining tuzulish xususiyatlari tahlili.....	252
N.X.Sharafutdinova, A.M.Rasulova	
O‘zbek tilida o‘zlashgan teonimlar tavsifi va tasnifi	256

ILMIY AXBOROT

Ш.М.Артикова	
Сравнительный анализ стратегий вежливости в русском и английском языках: речевой этикет, просьбы, отказы и извинения.....	261
F.B.Abduraximova, A.O.Oxunov	
The concept of internal form in word formation: linguistic, etymological, and cognitive perspectives.....	265
M.A.Abdulkhakimova	
The role of phraseology competence in english proficiency exams	270



UO‘K: 811.511.1’373.7+811.111’373.7:81’42+81’1

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZONIMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING
TUZULISH XUSUSIYATLARI TAHLILI****АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ
ЯЗЫКАХ****ANALYSIS OF STRUCTURAL FEATURES ZOONYMIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN
UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****Xoshimova Odina Olim qizi** 

Namangan davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularning tuzilishidir. Ular go‘yo oddiy erkin so‘z birikmalariga o‘xshasa ham, tuzilishi turg‘un bo‘lib, boshqa turli birikmalar bilan bog‘lanmaydi va so‘z tartibining o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Zoonimik frazeologizmlarning strukturasi, komponentlari tartibi, shakli bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir qancha muammolar bor.

Аннотация

Одной из характерных особенностей фразеологических единиц является их структура. Хотя они могут напоминать обычные свободные словосочетания, их структура является устойчивой, не сочетается с другими словосочетаниями и не допускает изменения порядка слов. Существует ряд проблем, связанных со структурой зоонимических фразеологизмов, порядком компонентов и их формой.

Abstract

One of the distinctive features of phraseological units is their structure. Although they may resemble ordinary free word combinations, their structure is fixed, they do not combine with other types of phrases, and they do not allow changes in word order. There are several issues related to the structure of zoonymic phraseological units, including the order and form of their components.

Kalit so‘zlar: zoonimik frazeologiya, struktur-semantik tahlil, struktur modellar, komponentlari tartibi, bir komponentli, ko‘p komponentli zoonimlar.

Ключевые слова: зоонимическая фразеология, структурно-семантический анализ, структурные модели, порядок компонентов, одно-компонентные и многокомпонентные зоонимы.

Key words: zoonymic phraseology, structural-semantic analysis, structural models, component order, single-component, multi-component zoonyms.

KIRISH

O‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarni o‘rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Uning dolzarbligi til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ochib berishda, tuzulish xususiyatlarini aniqlashda va kontrastiv tilshunoslik va tarjima nazariyalarini takomillashtirishda o‘z hissasini qo‘shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarning komponentlari tartibi va strukturaviy modellarini o‘rganishda dastlab ularning komponentlari tartibini o‘rganish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.[1] Bunda ularning har birini qanday strukturaviy modellar orqali birikishini aniqlashni taqazo etadi. Ushbu muammoni hal etish uchun quyidagicha tahlil o‘tkazildi va zoonimik frazeologik birliklarni ularning komponentlari tarkibi jihatidan quyidagi guruhlariga ajratildi:

- a) ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklar;
- b) uch komponentli zoonimik frazeologik birliklar;
- v) to‘rt komponentli zoonimik frazeologik birliklar;
- g) ko‘p komponentli zoonimik frazeologik birliklar;

TILSHUNOSLIK

Ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklar- bu hayvon nomini o'z ichiga olgan va ikki so'zni birlashtirgan frazeologik birliklardir. Bu birliklar oddiy, lekin tasviriy va ma'noli ifodalardir. Ular turli xil holatlar, hissiyotlar, voqealarni qisqa va obrazli tarzda ifodalashda ishlatiladi. Ilmiy izlanishimiz natijasida ingliz lug'atlaridan to'plangan materiallarga ko'ra ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklarni uncha ko'p uchratmadik. Ammo ularning soni yanada ko'proq bo'lishi mumkin, chunki til doimiy rivojlanishda va boyishda davom etib turadi. Kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklar quyidagi strukturaviy modellarga ega:

1) ot + ot strukturaviy modeli bilan quyidagi zoonimik frazeologizmlar yasalgan: Wasp waist - beli arinikidek, door dog – favqulotdagi kerakli eshiklar; monkey business– shubhali, o'zgaruvchan faoliyat; dog's breakfast- tartibsizlik besaramjomlik; o'zbek tilida esa: baxt qushi-omad, muvaffaqiyat kelishi, it azobi- kuchli qiyinchilik; po'lat qush-samolyot, anqoni urug'i- hech narsa yoki arzimagan narsaga ishora ma'nolarini uchratish mumkin.

2) sifat + ot strukturaviy modeli bo'yicha zoonimik frazeologik birliklar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tili uchun "kabi, o'xshab, singari" so'zlar, ingliz tilida esa "as, like" kabi ko'plab birliklar hosil qilingan. Masalan: ingliz tilida "blind as a bat" -kormaydigan, atrofidagi narsalarga befarq inson; "free as the bird"- erkin inson; "miserable as a bandicoot" - baxtiqaro, ishi yurishmagan inson; "crazy as a bedbug" -aqli joyida bo'lmagan, aqldan ozgan inson; "fit as flea"- sog'lom va tetik; o'zbek tilida: musichaday beozor- bezarar; yuvosh; qo'yday yuvosh- nihoyatta beozor; eshakday qaysar-o'jar, o'zini bilganidan qolmaydigan.,

3) ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklarning quyidagilari fe'l + ot strukturaviy modeliga ega: *milk the bull* - foydasiz narsalarni qilish behuda harakat qilish; *to rain cat and dogs*-jala quyishi; *to pegin action*- noto'g'ri, g'irrom harakat qilish; *to turtle movement* – sekin harakat qilish; o'zbek tilida grammatik jihatdan fe'l o'rni farqlari tufayli ot+ fe'l strukturaviy ko'rinishda uchraydi: otini qamchilamoq - tezda ishga kirishmoq, harakatni darhol boshlamoq; it-mushuk bo'lmoq-urushib, talashib yurmoq;

4) ikki komponentli zoonimik frazeologik birliklarning ot + predlog strukturaviy modellari ingliz tilida: *wolf down*- tez ovqatlanish, *pig out*-ko'p, tartibsiz ovqatlanish, *bear with*-sabr qilib turish, kutish, *fish for*-e'tibor va maqtov olishga erishish kabilarni uchratamiz. Ingliz tilidagi predloglar o'zbek tili grammatikasida mavjud emas. O'zbek tilida esa bu munosabatlar asosan kelishiklar, yordamchi so'z turkumlari va boshqa qo'shimchalar orqali amalga oshiriladi. O'zbek tili agglutinativ tillar qatoriga kirib, bu turdagi tillarda so'zning o'zak yoki asosini o'zgartirmagan holda qo'shimchalar qo'shish bilan ma'lum so'z va shakl yasaladi, har bir qo'shimcha muayyan ma'no va vazifa bilan qatnashadi.[2] Mana shu xususiyatlari bilan ingliz va o'zbek tillari bir biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham ingliz tilidagi predloglarga o'zbek tilidagi kelishiklar va yordamchi so'z turkumlar, ya'ni ko'makchilarni muqobil sifatida ko'rishimiz mumkin.[3]

Uch komponentli zoonimik frazeologik birliklar- bu uch elementdan tashkil topgan, birida hayvon nomini o'z ichiga olgan frazeologik birliklardir. Odatda, ular biror holat, hissiy holat yoki hayotiy voqeani qisqa va tasviriy ifodalash uchun ishlatiladi. Quyida o'zbek va ingliz tillarida eng ko'p uchraydigan struktural shakllarini ko'rib chiqamiz:

1) Ot + ot(yordamchi so'zlar) + fe'l: *tog'* bo'risiz bo'lmas - har yerning o'z muommosi bor; *balig boshidan sassir* - ishning boshlanishi yaxshi bo'lishi muhimligi; *bulbul chamanni sevar* - qadrli makonni sevish; *burgut chivin tutmas* - har kimning o'z vazifasi bor; *buqa shoxidan ilinar* - har bir ishda mulohaza qilish kerakligi; ingliz tilida fe'l o'rni bo'yicha biroz farq qilgan holda keladi: *fe'l+ot+ot* : *cook own goose*-ataganingni ber; *cook someone's goose*-birovni rejasini barbod qilmoq;

2) Sifat + ot(yordamchi so'zlar) + fe'l. o'zbek tilida: *yomon baliq suvni loyqalatar*-yomon niyat tinch joyni buzadi; ingliz tilida fe'l o'rni bo'yicha biroz farq qilgan holda keladi: *fe'l+sifat+ot+ot* : *Cry stinking fish*-o'tmas matoni maqtab sotish; *conceited as a barber's cat*-kekkaygan, dimog'dor kishi;

3) Sifat (yordamchi so'zlar) + ot (yordamchi so'zlar) +fe'l: *xushomadgo'yga qo'y so'ydirma*-har qanday ishda o'z manfaatini o'ylab ish bajaradigan kishi; *yotgan ho'kiz och qolar*-mehnatdan qochmaslik; ingliz tilida fe'l o'rni bo'yicha biroz farq qilgan holda keladi: *kick the dead horse* – befoyda harakat qilish; *catch a big fish*-eng katta foyda beradiganiga ko'p e'tibor qilmoq ma'nolarida uchraydi.

To'rt komponentli zoonimik frazeologik birliklar odatda to'rt so'zdan iborat bo'lib, hayvon nomlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklardir. Bu birliklar ko'pincha murakkab ma'no yoki tasvirni ifodalaydi. Quyida o'zbek va ingliz tillarida eng ko'p uchraydigan struktural shakllarini ko'rib chiqamiz:

1) Sifat+ot+ot+fe'l: O'ynoqi buzoq o't bosar – tarbiyasiz farzand ko'p dillarni vayron qiladi, xarakash eshak yo'lga yaramas- qiyinchilik ko'rmagan inson xayotning turli sinovlariga bardosh berolmaydi; egasiz eshakni bori yer-e'tiborsiz qoldirilgan narsa talon-taroj bo'lishi; ingliz tilida fe'l o'zni kelishi bo'yicha biroz farq qiladi: fe'l+sifat+ot+ot. Let sleeping dogs lie-o'tgan ishga salovat; cry wolf at every turn-behuda vahima ko'tarish;

2) Ot+fe'l+ot fe'l: Torg'ay qutursa-burgutga chopar-vaziyatga togri baho bermaslik; eshak mingan ot so'ramas- mavjud ne'matlardan oqilona foydalanish; kabi misollar ifodalansa ingliz tilida fe'l o'rniga ko'ra farqlanadi. Masalan: catch the fox-kill the goose-qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish;

Ko'p komponentli zoonimik frazeologik birliklar - bu bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, hayvon nomlarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklardir. Ular odatda bir nechta so'zni birlashtirgan holda murakkab ma'no yoki tasvirni ifodalaydi. Bu frazeologizmlarda hayvonlar ko'pincha ma'lum bir xususiyat, holat yoki vaziyatni ta'riflash uchun ishlatiladi. Komponentlar tarkibi ortib borgan sari ularning gapga tengligi tobora ortib boradi. [4] O'zbek tilida:

-Yomon buqa oz boshini yer – yomonlikni o'ziga bolgan ta'siri; bo'rini og'zi yesa ham qon, yemasa ham qon- biror yomonlikni qayta sodir etmagan bolsa ham unga nisbatan gumonlanish;

Ingliz tilida: the straw that broke the camel's back-kichik bir sababni katta muommoga olib kelishi; the early bird catches the warm-erta turganning foydasi haqida; misollarni keltirish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek va ingliz tillarida mavjud zoonimik frazeologik birliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda ham hayvon nomlari asosida shakllangan iboralar til egalarining tafakkuri, turmush tarzi, qadriyatlari va tarixiy-madaniy tajribasini aks ettiradi. Frazeologik birliklarning strukturasini tahlil qilish orqali bir nechta umumiy va farqli jihatlar aniqlandi:

Struktura o'xshashliklari: Ikkala tilda ham zoonimik frazeologik birliklar odatda ikkita yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, ular grammatik jihatdan fraza (ibora) shaklida bo'lib, bir butun ma'no ifodalaydi. Masalan:

O'zbek tilida: "bo'ri ko'z", "tulki yurish", "sigir suti og'zida";

Ingliz tilida: "to cry wolf", "a snake in the grass", "as stubborn as a mule".

Struktura farqlari: Ingliz tilida zoonimik iboralar ko'proq metaforik tuzilmalar orqali berilgan bo'lsa, o'zbek tilida esa ular ko'pincha xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan tasviriylik bilan shakllangan. Shuningdek, ingliz tilida bu birliklar ko'pincha maxsus grammatik modellar (idiomatik fe'lli birikmalar, simile strukturalari) asosida quriladi.

Zoonimlarning funksional roli: Hayvon nomlari har ikki tilda ham inson xulq-atvorini, xarakterini yoki ijtimoiy mavqeini tasvirlash uchun ishlatiladi. Biroq bu hayvonlarning tanlanishida milliy mentalitet ta'siri seziladi. Masalan, o'zbek tilida "eshak" ko'proq salbiy konnotatsiyada ishlatilsa, ingliz tilida "fox" ko'pincha ayyorlik belgisi sifatida uchraydi.

Kontekstual tafovutlar: Ba'zi zoonimik birliklar ikki tilda shaklan o'xshash bo'lsa-da, ularning ma'no jihatidan tafovutlari mavjud. Bu holat tarjimada qiyinchilik tug'diradi va kontekstual yondashuvni talab qiladi.[5]

XULOSA

Zoonimik frazeologik birliklarning struktur-semantik tadqiqi tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki ular nafaqat tilning ifodalovchi imkoniyatlarini, balki madaniy va psixologik omillarni ham aks ettiradi. Bu tadqiqot orqali frazeologik birliklarning tilda qanday ishlashi, ular orqali qanday ma'no va tasvirlar yuzaga kelishi, shuningdek, ularning jamiyatdagi roli haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кунин А. В. Курс фразеологии современного языка : Учебн. для ин-тов и фак. иностр. яз. / А. В. Кунин. – [2-е изд., перераб.]. – М., 1996. – 381 с
2. Умархўжаев М.Э. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. – Андижон, 2010.
3. В.В Виноградов. "Лексикология и лексикография".-Москва.:1977.

TILSHUNOSLIK

4. И.И.Чернышева Фразеология современного немецкого языка. "Высшая школа". – Москва, 1970.
5. Л.Е. Кругликова, Структура лексического и фразеологического значения /. - М., 1988. - 83 с.